

## TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYARNI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

*Munisa Aybek qizi Ibaydayeva  
Behzod Ro'zimboy o'g'li Otajonov  
Ruxsora Ravshanbek qizi Qalandarova  
Xurliman Reybnazarova  
Nukus Davlat Pedagogika Instituti  
Pedagogika fakulteti 4-bosqich talabalari*

*“O'qituvchilarning eng muhim vazifasi yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir”*

*Sh.M.Mirziyoyev*

**Annotatsiya:** Maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda ularni amaliyotga tatbiq qilish chora tadbirlari batafsil yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, innovatsiya, pedagogik mahorat.

Ona O'zbekistonimiz azal-azaldan ham buyuk mutafakkirlar yurti, o'z bag'rida ne-ne olim-u fuzalolarni yetishtirib chiqargan muqaddas diyor, har tuprog'i aziz maskandir. Ona Vatanimizda yuksalishlar, yangilanishlar har sohada innovatsiyalar barq urib rivojlanayotgan bir paytda ta'lim tizimi ham bu jadallashuv jarayonidan ortda qolayotgani yo'q. Ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim sifatini yanada yaxshilash har bir pedagogning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari Vatan ravnaqiga o'z hissasini qo'shib, mamlakatimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarayotgan yoshlarimizning muvaffaqiyatlarida o'qituvchilarimizning hissasi katta. Yurtimizda pedagog kadrlarga berilayotgan mislsiz imkoniyatlar har bir pedagogni o'z kasbini sevishga, sohani rivojlantirishga bo'lgan tashabbuslarini kashf etishga undamoqda. Ta'lim tizimiga yangilanishlar turli xil innovatsion texnologiyalarning kirib kelishi pedagog kadrlarning zimmasiga ma'suliyatli yukni yuklayotgani hech birimizga sir emas. Hozirgi kunda pedagoglarga zamon bilan hamnafas bo'lish talabi qo'yilmoqda. Masalan: pedagog kadr oliy o'quv yurtida olgan bilimlari bilan cheklanib qolmasdan, tinimsiz izlanishi, sohani rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishi, o'z vazifasiga ma'suliyat bilan yondashishi kerak. Buning boisi, tarbiya bu qotib qolgan jarayon emas, balki, muntazam o'zgarib turuvchi mezonlar majmuasidir. Bundan tashqari, har bir pedagog birinchi galda malakali psixolog bo'lishi ham kerak. Shuningdek, malakali pedagog o'z kasbini sevishi kasbining fidoiysi bo'lishi, pedagogikada qo'llaniladigan metodlar, fundamental pedagogika asoslaridan muntazam xabardor bo'lib, fandagi yangiliklarni amaliyotda tatbiq qilishi

kerak. Pedagogika fani juda qadimiy fan hisoblanib, yillar davomida sayqallanib rivojlanib kelgan.

Pedagogika fani bugungi kunda har sohani rivojlantirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Yosh, ilmga chanqoq avlodni barkamol inson, jismonan va ma'nan yetuk shaxs qilib tarbiyalashda o'qituvchilarimiz jon kuydirib mehnat qilishmoqda. "Har qanday buyuk insonni ham ustoz tarbiyalaydi" - deydi dono alqimiz. Bundan tashqari "Ustoz otangday ulug'" degan ibora ham bejiz aytilmagan. Pedagoglarning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri yosh avlodni Vatanga nafi tegadigan inson qilib tarbiyalashdan iborat. Buning uchun o'qituvchilarimizdan katta mehnat, cheksiz matonat talab etiladi. O'qituvchilik kasbi sharafli kasb bo'lganligi bilan bir qatorda, o'ta ma'suliyatli hamdir. O'qituvchilikdek ma'suliyatli vazifani o'z bo'yniga olgan har bir yosh pedagog o'z vazifasini teran anglab yetmog'i darkor. Zamonaviy pedagog dars jarayonini to'g'ri tashkillashtirishi, yangi uslublarda dars o'tishi, o'qituvchilarning o'zlashtirish darajasini yaxshi baholay olishi zarur. Yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim sifatini yaxshilashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz berdi, o'qituvchi faoliyati yangilandi, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantirildi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi fanga 1872-yilda kirib keldi, grekcha ikki so'zdan — «texos» - «san'at», «hunar» va «logos» - «fan», «ta'limot» so'zlaridan tashkil topib, "Hunar fani" ma'nosini anglatadi. Bundan pedagogik texnologiya san'at, hunar va texnikaning mukammal jamlanmasi degan tugal fikr kelib chiqadi. Pedagogik texnologiya bu o'qituvchining o'qituvchilarga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya.

Pedagogik nashrlarda «O'qitish texnologiyasi», «Ta'lim texnologiyasi» tushunchalari ishlatiladi. O'qitish texnologiyasi – birinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-harakat aspektini anglatadi. Bu ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi usul va vositalarning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni, ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan atijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatining loyihasini bajarishning bayonidir. Ta'lim texnologiyasi pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu texnik va inson resurslarini hamda ularni o'z oldiga ta'lim

shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usulidir.

Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlarda «pedagogik texnologiya» tushunchasini ta'riflashda turli xil tasniflarni uchratishimiz mumkin. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDH davlatlari ichida birinchilardan bo'lib ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V P . Bepalko «Pedagogik texnologiya - amaliyotga joriy etish mumkin bolgan pedagogik tizimning loyihasidir», deyish bilan, quyidagi ta'rifni beradi: «Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir». Bu ta'rif mazmunidan quyidagi muhim tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin: pedagogik texnologiya o'quvchilarda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalangan, loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi, yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi. T.S. Nazarova ta'rificha: «Pedagogik texnologiya - ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuyidir». Nufuzli Y U N E S K O tashkiloti ma'qullagan ta'rif o'yicha «Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir». Nemis olimi Kurt Levin, shveysariyalik psixolog Jan Piyajel XX asrning 40-yillaridayoq guruhda ko'pchilikning yagona bir qarorga kelishining psixologik tabiatini o'rganishar ekan, pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini alohida qayd etib o'tishgan. Amerikalik olimlar Benjamin Blum, Levi Stross, Jon Morenlar fikricha «...pedagogik texnologiya ta'lim maqsadlarini ko'zlangan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan harakatlari shaklida oydinlashtirishdir». Rus olimasi N.V. Kuzmina pedagogik tizim o'zida ta'lim va tarbiya maqsadiga bo'ysindirilgan o'zaro bog'liq tarkibli elementlardan tashkil topishini uqtiradi. Bir guruh rus olimlari «pedagogik texnologiyalar obyektiv jarayon va u yangicha sifatiy muammolarni yechish uchun ta'limni evolutsion bosqichga ko'tarish shartlaridan biri» deb qaraydilar (M.V. Klarin, T.A. Ilina). M.V. Klarin fikricha, pedagogik texnologiya— o'quv jarayoniga yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib o'quv jarayonini loyihalashdir. Rossiya pedagoglaridan V .M .Monaxov pedagogik texnologiyaga quyidagi ta'rifni beradi: «Pedagogik texnologiya-avaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir» va uning ususiyatiga e'tibor qaratib, «Pedagogik texnologiya o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining subyektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», - deydi.

V.P. Bospalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan N. Sayidahmedov «Pedagogik texnologiya– bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir» deb ta'kidlaydi. Yirik pedagog olimlarimizdan biri M.Ochilov pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosaga keladi: «Pedagogik texnologiya-tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir». U pedagogik texnologiyaga ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui deb qaraydi. «Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir», - deb ta'rif beradi. Ko'rib turganimizdek, «pedagogik texnologiya» tushunchasini ta'riflashda hali yagona fikrga kelinganicha yo'q. Umumiy qilib aytganda, pedagogik texnologiya - ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va obyektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi. Pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifalarini o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni obyektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi. Pedagogik texnologiya XX asming oxirlarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqalib, nufuzli YUNESKO tashkiloti tomonidan ham tan olindi va qo'llab-quvvatlandi. Ko'pgina mamlakatlar pedagogik texnologiyadan foydalanib, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda, o'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishdilar. Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi. Pedagogik texnologiya yordamida 3-ming yillikda O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimida ham tub o'zgarishlar yuz berishi, o'qituvchi o'quvchi faoliyati yangilanishi. yoshlarda xurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantirilishi ko'zda tutilmoqda.

Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati. Pedagogik texnologiyaga nima uchun «yangi» soʻzi qoʻshib ishlatilmoqda? «Yangi pedagogik texnologiya» nimani anglatadi? Birinchidan, pedagogik texnologiya taʼlim (tarbiya) jarayoni uchun oyihtalanadi. Binobarin, har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda maʼlum pedagogik tizim mavjud boʻladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma oʻz taʼsirini oʻtkazadi va taʼlim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi. «Maqsad» esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini oʻz navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi. Insoniyat tarixida yashash uchun kurash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, hayotning kelgusi qirralarini belgilab olishga urinishlar doimo boʻlib turgani kabi, pedagogik texnologiyaning ham oʻz oʻtmishi va kelajagi boʻlishi tabiiy holdir. Oʻzbekistonda taʼlim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri «shaxs manfaati va taʼlim ustuvorligi»dir. Pedagogik texnologiya konsepsiyasi qanday universal oʻzgarishlar, kashfiyotlar zahirida rivojlandi? «Pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi, taʼlimning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bogʻliq. Individual taʼlim oʻquv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli boʻlib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo boʻlgan edi. Oʻqituvchi bir oʻquvchi bilan ishlab, taʼlimni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. Oʻqituvchi matnlarni oʻqib bergan yoki bolalariga oʻqitib soʻzlatgan. Qoida va taʼriflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish, musiqa asboblari u yoki bu kuyni ijro etish yoʻllari bilan bolalar hayot, sanʼat, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni oʻzlashtirgan. Keyinchalik individual taʼlim oʻrnini guruhlar asosida oʻqitish egallagan. Oʻrta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, ogʻzaki savol-javob, yuqori pagʻonalarda esa maʼruza, munozara taʼlimning yetakchi usullariga aylana boshlagan yangi texnologiyalarni kelib chiqishiga zamin hozirlagan. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xorijiy mamalakatlarda koʻplab pedagogik nazariyalar vujudga keldi. Ularning ayrimlari taʼlim-tarbiya tizimini yaxshilashga, oʻquvchilar faolligini oshirishga qaratilgan edi. Shu davrlarda «Yangi maktablar» degan pedagogik oqim paydo boʻlib, uning asoschisi fransuz pedagogi E. Demolen edi. Bunday maktablar Angliya, AQSH, Fransiya, Belgiya, Shvetsariya kabi koʻplab davlatlarda ochildi. Jenevada «Yangi maktablarning xalqaro birlashmasi» tuzildi va unda yangi maktablarga qoʻyilgan talablar belgilab berildi. Bu maktablar xususiy boʻlib, unda haq toʻlashga qodir kishilarning bolalarigina oʻqitilgan. Yani maktablarda ish yaxshi yoʻlga qoʻyilgan, toʻliq jihozlangan kabinet va laboratoriyalar tashkil etilgan, «erkin va faol» metodlar qoʻllanilgan. Oʻquvchilarning oʻz-oʻzini boshqarish organlari boʻlgan. Maktablarning amaliy pedagogik laboratoriyasi boʻlib, bolalarning miyasini yodlab olingan bilimlar bilan toʻldirish orqali taʼlim berish oʻrniga, ularning fikrlash qobiliyatini umumiy oʻstirish yoʻli bilan taʼlim berishga harakat qilingan. Oʻquvchilarga qanday qilib kuzatish, gipotezalar topishni, oʻz taxminlarini tekshirib koʻrishni

o'rgatganlar. Bunday maktablarda o'qitish faktlarga va tajribaga tayanishga, bolalarning tashabbuskorligi va mustaqilligini tarbiyalashga asoslangan edi. XIX asr oxirlarida Germaniyada pedagog Vilgelm Avgust Lay (1862-1926) «ish-harakat pedagogikasi»ga asos soldi. Uning g'oyalari ham o'ziga xos ijobiy tomonlari, yangiliklar bor edi. Lay pedagogik jarayonda ifodalash, tasvirlashga katta ahamiyat berdi, chunki uning fikricha, mana shunday ifodalash yoki tasvirlash jarayonida o'quvchilar o'z faolliklarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek pedagogika fani ko'p tarmoqli fandır. Shu tarmoqlaridan biri innovatsion pedagogikadir. Innovatsion pedagogika – hukmron nazariya, nazariy va amaliy muammolarni yechish asos etib olingan pedagogika fani sohasidir. Innovatorlarning fikricha, odatdagi mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan ya'ni yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas. Bu vaziyatda innovatsiya juda muhimdir. Pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limda innovatsion jarayonlarni oshqarish kabi tushunchalar XX asming 60-yillarida dastlab, AQSH va g'arbiy Yevropa mamlakatlarida «ta'lim texnologiyasi» tushunchasi e'tirof etilgan vaqtida paydo bo'lgan. O'sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etilgan edi. Bu tushunchalarning paydo bo'lishi va innovatsion ta'lim nazariyasining yaratilishi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalar ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida bolaga do'stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi. O'qituvchi innovatsion faoliyatining umumiy va alohida jihatlarini K. Angelovskiy, G.I. Gorskaya, V.A. Kan-Kalik, S.L. Kuzmina, V.A. Slastenin, L.M. Fridman kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berdilar. Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani rivojlantirish muammolari ustida pedagog olimlardan N. Azizxo'jaeva, B. Farberman, R. Mavlonova, U. Nishonaliyev, N. Sayidahmedov, M. Ochilovlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Innovatsiyalar dolzarb muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosda tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya - ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Innovatsiyaning maqsadi sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini

tashkil etadi. Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning printsiplial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb - innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. «Innovatsion faoliyat - bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmualii muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir», deb ta'kidlaydi V.I.Slobadchikov. Innovatsion faoliyat bu amaliyot nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi-loyihaga, loyihani - texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda jamoadagi psixologik muhit, jamoa a'zolarining qanchalik darajada dunyo ta'lim bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligini hisobga olish zarur. O'sib borayotgan avlod tarbiyasi juda jiddiy jarayon bo'lib, uni o'tkinchi narsalarga bog'liq qilib qo'yish mumkin emas. Chunki uni tashkil etuvchi qoidalar inson tabiati va uning rivojlanishi haqidagi obyektiv ma'lumotlarga ziddir. Kuchli, ta'sirchan va mustahkam tarbiya tizimini faqatgina fan o'rnatgan obyektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin. Bu, albatta, innovatsion pedagogika bilan bog'liqdir. Har bir insonning yetarlicha rivojlanishi, yuqori darajaga erishishi, o'ziga yoqqan mashg'ulot bilan shug'ullanishi va hayotda o'z o'rnini topishi, o'z hayotini

munosib o'tkazishi maktabga bog'liqdir. Har bir bolani sevib, hurmat qilib va uning rivojlanishi uchun kerakligicha sharoit yaratib berish kerak. Gumanistik pedagogikani innovatsion deb ataydilar. Gumanistik pedagogikani to'la ma'noda innovatsion deb aytish mumkin. U tashqaridan inyeksiya talab qilmaydi. Yuqori o'quv-tarbiyaviy ta'sir natijalariga tizimning ichki qayta tashkil etilishi evaziga erishiladi.

Bo'lajak pedagog sifatida xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, buyuk kelajakni bunyod etish maqsadida bo'lgan har bir yosh, avvalo fan tarixini teran o'rganmog'i lozim. Tarixni teran o'rganar ekanmiz, ko'plab ma'lumotlarni, fikr yuritishni, dunyoqarashni qanday shakllantirishni, o'qib o'rganilgan ma'lumotlardan xulosa yasashni o'rganamiz. O'rganilgan bilimlarni amaliyotda tatbiq etib soha rivojiga hissa qo'shish bizning eng muhim vazifamizdir. Bizdan avval izlanib tadqiqotlar olib organ olim olimalarimizning izidan borib, ularga munosib izdosh bo'lib yetishish har bir yosh izlanuvchining muhim vazifasidir. Innovatsiyalar har sohada zarur bo'lgan muhim yangiliklardir, har bir soha yangi innovatsion texnologiyaga muhtojdir. Fan texnika olamidagi yangiliklardan xabardor bo'lib sohada qo'llash ta'lim tizimini sistemalashtirishga asos bo'ladi. Sistemalashtirilgan ta'limning sifati esa biz o'ylagandan ko'ra katta natijalar beradi. Fanni rivojlantirishga har bir fan mutaxassisi o'z hissasini qo'shadigan bo'lsa fanda mislsiz yangiliklar bo'lishiga hech shubham yo'q. Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada rivojlantirishga qaratilgan sa'y harakatlarni o'z ichiga oladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar sohasi esa ta'lim jarayonida tub burilishlar yasay oladigan yangi yo'nalishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI" R. MAVLONOVA, N. VOXIDOVA, TOSHKENT -2010
2. "PEDAGOGIKA NAZARIYASI" X. IBRAGIMOV, S. H. ABDULLAYEVA TOSHKENT 2008